

2025-yil, oktabr 18(64)-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

21 oktabr – O'zbek tili bayrami kuni



Tog'oymurod BEKMURODOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
togaymurod192@gmail.com

MATBUOT TERMILARINING MODERNIZATSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada matbuot terminlarining modernizatsiya jarayonlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy til taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek matbuot tili, terminologiya, modernizatsiya, yangi matbuot terminlari, raqamli jurnalistika, onlayn nashr, ijtimoiy media, media savodxonlik, axborot texnologiyalari, globallashuv.

Annotation: this article analyzes the modernization processes of press terminology and highlights their role in the development of contemporary language.

Key words: Uzbek press language, terminology, modernization, new press terms, digital journalism, online publication, social media, media literacy, information technologies, globalization.

Аннотация: в данной статье анализируются процессы модернизации терминов прессы и освещается их роль в современном развитии языка.

Ключевые слова: узбекский язык прессы, терминология, модернизация, новые термины прессы, цифровая журналистика, онлайн-издание, социальные медиа, медиаграмотность, информационные технологии, глобализация.

O'zbek matbuot tili xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida milliy til taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir davrning taraqqiyoti, jamiyatlardagi o'zgarishlar, xalqaro aloqalarning kengayishi va ilmiy-texnik yutuqlar bevosita matbuot tili leksik qatlamida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda o'zbek matbuotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy terminlarning yangilanishi kuzatildi.

So'nggi yillarda globallashuv, raqamli kommunikatsiya vositalarining rivoji hamda xalqaro axborot makoniga faol qo'shilish jarayonlari matbuot tilining modernizatsiya jarayonini yanada jadallashtirdi. Bu holat matbuot leksikasida yangi terminlar, neologizmlar, xalqaro atamalar, shuningdek, tarjima yo'li bilan kirib kelgan birliklarning faol qo'llanishiga olib keldi. Bunday jarayon, bir tomondan, til boyligini kengaytirsam, ikkinchi tomondan, mavjud leksik birliklarning semantik ko'lamini o'zgartirish va yangicha kommunikativ vazifalarni bajarishga moslashtirishni talab qilmoqda. Demak, o'zbek matbuot tilining modernizatsiyasini o'rganish nafaqat lingvistik jarayon sifatida, balki ijtimoiy-madaniy, sotsiopragsmatik va kommunikativ jarayonlar majmuasi sifatida dolzarb ilmiy

masala hisoblanadi. Mazkur jarayonni tahlil qilish orqali yangi terminlarning shakllanish manbalari, ularning matbuot leksikasiga singishi, xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashuvi va milliy tilning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi (Dadaboyev, 2019).

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda axborot maydonida tub o'zgarishlar ro'y berdi: yangi gazeta va jurnallar ta'sis etildi, mustaqil nashriyotlar faoliyati yo'lga qo'yildi, xalqaro axborot almashuvi kengaydi. Ayniqsa, internet texnologiyalarining rivojlanishi matbuot tili va terminologiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Yangi matbuot terminlarining paydo bo'lish sabablari. Yangi terminlar biror sohaning rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Matbuot sohasida yangi terminlarning shakllanishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

1. Ijtimoiy-siyosiy omillar va yangi matbuot terminlarning paydo bo'lishi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotida yuz bergan keskin siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar milliy matbuot tilida ham o'z aksini topdi. Avvalo, axborot siyosatining erkinlashuvi va so'z erkinligini huquqiy jihatdan kafolatlash jarayoni natijasida yangi institutlar tashkil etildi

va ular orqali yangidan yangi terminlar kirib keldi. Shu jumladan, davlat boshqaruvi tizimida *axborot siyosati* – davlatning axborot oqimlarini tartibga solish faoliyati; *virtual matbuot* – onlayn gazeta va jurnal; *axborot xavfsizligi* – yolgʻon xabarlar va axborot xurujlariga qarshi turish tushunchasi; *globallashuv* – xalqaro axborot oqimlari taʼsirida shakllangan matbuot termini; *ochiqlik siyosati* – matbuotda oshkoralikni taʼminlashga oid jarayon; *media savodxonlik* – aholining axborotni tanqidini qabul qilish qobiliyatini bildiradi; *media makon* – raqamli va anʼanaviy OAV yigʻindisi; *onlayn jurnalistika* – internet orqali faoliyat yurituvchi jurnalistika sohasi; *kiberxavfsizlik* – internet makonida axborotni himoya qilish sohasi; *bloggerlik faoliyati* – shaxsiy axborot uzatish kanali sifatida shakllangan yangi media koʻrinishi. Bu terminlarning ommalashuvi, bir tomondan, yangi ijtimoiy-siyosiy institutlarning tashkil etilishi bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan, xalqaro tajribaning milliy matbuot tiliga singdirilishi natijasi hisoblanadi. Demak, yangi terminlar mamlakatning siyosiy-ijtimoiy rivoji hamda xalqaro tajriba taʼsirida shakllanadi. Bu jarayon milliy terminologiyaning boyishiga, matbuot leksikasining zamonaviylashuviga xizmat qiladi (Joʻrayev, 2015).

2. Texnologik omillar. Oʻzbek matbuot tilining zamonaviy rivojlanishida texnologik omillar eng muhim determinantlardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. XXI asr axborot-kommunikatsiya vositalari, internet va raqamli texnologiyalarning keskin rivoji matbuot terminologiyasiga tub oʻzgarishlar olib keldi. Ayniqsa, raqamli jurnalistika, ijtimoiy media va multimedia formatlarining keng tarqalishi oʻzbek tilida yangidan yangi terminlarning paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Xususan,

a) internet va raqamli platformalar taʼsiri. Internet ommaviy axborotning asosiy manbalaridan biriga aylangach, matbuot leksikasida quyidagi yangi terminlar faol qoʻllanmoqda: *onlayn gazeta*, *elektron jurnal*, *raqamli nashr*, *veb-sayt*, *portal*, *media-loyiha*, *podkast*, *audiokitob* va boshqalar. Bu terminlar matbuotning yangi shakl va janrlarini ifodalashga xizmat qilib, anʼanaviy gazeta va jurnal tilidan farq qiluvchi zamonaviy leksik qatlamni yaratmoqda.

b) ijtimoiy tarmoqlar va yangi media. Matbuot tilining texnologik omillarga bogʻliq ravishda kengayishi, avvalo, ijtimoiy media bilan bogʻliq. Facebook, Telegram, YouTube, Instagram kabi platformalar jurnalistikada yangi jarayonlarni yuzaga chiqardi. Malalan: *bloggerlik* – shaxsiy axborot kanali sifatida rivojlangan media shakli; *kontent yaratish*, *kontent-marketing* – internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun material ishlab chiqish jarayoni. Bu kabi terminlar milliy matbuot tilida faol qoʻllanib, xalqaro terminologiya bilan uygʻunlashmoqda, qolaversa, oʻzbek tilining xalqaro axborot makoniga integratsiyalashuvini taʼminlash bilan birga, milliy til boyligini kengaytiradi.

3. Madaniy va kommunikativ aloqalar. Oʻzbek matbuot tilining zamonaviy rivojlanishida madaniy hamkorlik va xalqaro kommunikativ aloqalar muhim determinantlardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Mustaqillikdan soʻng Oʻzbekiston xalqaro axborot maydoniga faol qoʻshila boshladi, bu esa oʻzbek matbuot terminologiyasida tub oʻzgarishlarni yuzaga keltirdi. Qolaversa, xalqaro aloqalar va terminlarning kirib kelishi, madaniy hamkorlik, xalqaro konferensiyalar, ilmiy va kasbiy muloqotlar jarayonida koʻplab xorijiy terminlar matbuot leksikasiga kirib keldi. Masalan: *press-konferensiya*, *press-reliz*, *briefing* kabi inglizcha terminlar diplomatik va siyosiy tadbirlar orqali milliy matbuot tilida keng tarqaldi. *Brend*, *imidj*, *smm* (social media marketing) kabi atamalar marketing va reklama faoliyatining rivojlanishi bilan bogʻliq holda qoʻllanmoqda. *Media*, *kontent*, *blog* kabi terminlar xalqaro internet-makonda shakllangan boʻlib, oʻzbek tilida ham toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻllanmoqda (Bektemirov, 2002).

Tarjima va kalkalash jarayonlari ham madaniy va kommunikativ aloqalarning yana bir muhim jihati – xorijiy atamalarni tarjima yoʻli bilan kirib kelishi. Masalan:

mass media → ommaviy axborot vositalari.

open data → ochiq maʼlumotlar.

fake news → soxta xabar.

information security → axborot xavfsizligi.

Bu jarayon oʻzbek tilining milliy imkoniyatlarini ishga solish bilan birga, xalqaro terminologiyaning moslashtirilishini taʼminlaydi.

Globallashuv jarayoni natijasida milliy matbuot xalqaro media tizimiga integratsiyalashmoqda. Bu jarayon o'zbek matbuot terminologiyasida ham yaqqol ko'rinmoqda. Masalan, *podkast, blog, multimedia* kabi terminlar global media janrlarini ifodalaydi va ular milliy matbuotda ham yangi formatlar sifatida o'z o'rnini topmoqda. Bu terminlar nafaqat xorijiy axborot makonidan o'zlashtirildi, balki milliy jurnalistikada yangicha axborot taqdim etish usullarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Tarixiy jihatdan esa o'zbek matbuotida dastlab *ro'znoma, jarida, majalla* kabi fors-tojikcha terminlar qo'llangan. Ular XIX–XX asr boshlarida yozma matbuotning asosiy terminlari sifatida keng iste'molda bo'lgan. Masalan, “Turkiston viloyatining gazetasi” ilk sonlarida “ro'znoma” termini qo'llangan bo'lsa, jadid matbuotida “majalla” va “jarida” tarzida faol ishlatilgan. Bugungi kunda esa ushbu tarixiy terminlar yoniga *gazeta, jurnal, media-loyiha, onlayn platforma, kontent, axborot portali* kabi global terminlar qo'shildi. Bu esa milliy matbuot tilida eski va yangi qatlamlarning qo'shma holda ishlashini, ya'ni lingvistik pluralizm jarayonini namoyon etadi. Shu orqali milliy matbuot terminologiyasi bir vaqtning o'zida ham tarixiy ildizlarga, ham zamonaviy global media makoniga tayangan holda rivojlanmoqda. Muxtasar qilib aytganda, madaniy va kommunikativ aloqalar yangi

matbuot terminologiyasining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi (Barnoyeva, 2023).

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'zbek matbuot tili tarixiy taraqqiyot davomida izchil boyib, milliylikni saqlagan holda zamon talablari bilan hamnafas rivojlanib kelmoqda. O'tgan davrlarda ishlatilgan ayrim eski nomlar o'rnini yangilari egallab, bugungi kun til amaliyotida o'z mustahkam o'rnini topdi. Mustaqillik yillarida mamlakat hayotidagi yangilanishlar, dunyo bilan aloqalarning kengayishi va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi natijasida matbuot tili zamonaviy shakl kasb etdi.

Bugungi kunda o'zbek matbuoti nafaqat milliy madaniyat va tarixni aks ettiruvchi vosita, balki global o'zgarishlarga hamohang jarayonlarning faol ishtirokchisidir. Bu esa uning xalqaro miqyosda o'z o'rnini topishiga, milliy til imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilmoqda. Shu bois, matbuot tilini rivojlantirishdagi eng muhim vazifa — uni milliylikni asragan holda zamonaviy axborot oqimlari talablariga moslashtirishdir.

Shunday qilib, matbuot tilining o'zgarish va yangilanish jarayonini ilmiy asosda kuzatish va baholash nafaqat tilshunoslik fani, balki mamlakatning axborot siyosati, madaniy taraqqiyoti va xalqaro hamkorligi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019. 85-b.
2. Jo'rayev M. O'zbek matbuot tili tarixi. – Toshkent: Fan, 2015. 138-b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002. 241-b.
4. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. – Toshkent, 2002. 84-b.
5. O'zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqboli. Ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2017 (lotin yozuvida).
6. Sh.Barnoyeva. Matbuot tilining uslubiy xususiyatlari. // “Nauchniy impuls” j.2023. 17-b.

Elektron manbalar

1. www.ziynet.uz
2. www.edu.uz
3. www.infocom.uz
4. www.literature.uz
5. www.kutubxona.uz

Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liqin Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruza Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,
Gulsanam Xolikulova, Svetlana Umirova,
Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova,
Dilbar Niyazova, Sayyora Halimova,
Shaxnoza Yunusova, Nigoraxon Ro'zibayeva,
Tadjixon Sabitova, Oqila To'raqulova,
Mohigul Fozilova, Maxpuza Karaxodjayeva,
Dilfuza Toshniyozova, Gulboxor Ernazarova,
Komiljon Qarshiyev, Uyg'unjon Turdimurodov,
Diyora Yunusova, Ra'no Abdullayeva,
Sharif Yarashov, Shaxnoza Xudaykulova,
Mahliyo Elboyeva Sanobar Ulliyeva,
Surayyo Inomjonova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika
hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Shohsanam YIGITALIYEVA.

TIL VA TAFAKKUR

MUNOSABATLARI TAVSIFI 7

Munira XUDOYOROVA.

NAVOIY QIT'ALARI POETIKASIGA DOIR..... 10

Malika MAXMUDOVA.

ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA

ODOB MAVZUSI TALQINI 14

TILSHUNOSLIK

Fozilbek XAMRAYEV.

SHEVA SO'ZLARINING XORIJIY SO'ZLARNI

MILLIYLASHTIRISHDAGI O'RNI.....17

Mazmuna OTABOYEVA.

PRAGMALINGVISTIK TADQIQOTLARNING

SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI22

Dilzodaxon SAYDALIYEVA.

TILSHUNOSLIKDA TILGA SISTEMA

SIFATIDA QARASH TADQIQI25

Shahnoza NIZAMOVA.

O'ZBEK TILI TAXALLUSLARINING

NOMINATSION-MOTIVATSION XUSUSIYATLARI28

Shohsida ESHBO'TAYEVA.

MUSIQA TERMINLARINING

STRUKTUR-GRAMMATIK TAHLILI.....30

Mahfurat OMONOVA.

MATNDA SEMIOTIK ELEMENTLARINING

BIRIKISH TAMOIYILLARI.....33

Aslam USMONOV. MATN TUSHUNCHASI, HAJVIY MATNDA KULGINING IFODALANISHI	36
Наргиза ИБРАГИМОВА. ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ БУРЕНИЯ В НЕФТЕГАЗОВОЙ СФЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА	38
Djavod KURBANBAEV. CONCEPTUAL METAPHORS AND CULTURAL SCRIPTS IN KARAKALPAK AND ENGLISH PROVERBS	45
Muxaram ALIMOVA. Nilufar BABAJANOVA. LINGUO-COGNITIVE REPRESENTATION OF AFFECTION AND EMPATHY IN ENGLISH WRITERS' NOVELS	48
Gulbaxor NAZAROVA. Karina NOVIK. METHODS OF WORD BORROWING AND ITS THEORETICAL FOUNDATIONS	51

ADABIYOTSHUNOSLIK

Erkin MUSURMANOV. MASHRAB VA QALANDARLIK TARIQATI	55
Hafiza ASLANOVA. POSHSHOXOJA HIKOYATLARIDA ISKANDAR TIMSOLI	57
Seytjan MATEKEEV. AJINIYOZ IJODIDA AN'ANAVIY OBRAZLAR BADIYYATI	60
Oqiljon MAVLONOV. YANA "QARO KO'ZUM" G'AZALINI	63
O'RGANISH TAJRIBASIDAN	63
Dildora ALIQULOVA. Xurshida XURRAMOVA. YEVROPA VA O'ZBEK ADABIYOTIDA URUSH VA TINCHLIK MASALASINING BADIYY TALQINI	68
Nafisa ABDURASULOVA. "JUDOLIK DIYORI" ROMANIDA SYUJET TUZILISHI	71
Boboqand UMAROV. USMON AZIM IJODINING ILK DAVRLARIDA IJTIMOIIY HAYOT TASVIRI VA POETIK TAFAKKUR SHAKLLANISHI	76
Тимур АЮПОВ. ЭСХАТОЛОГИЧЕСКИЙ МИФЫ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕАЛЬНОСТИ В РАННИХ РОМАНАХ ВИКТОРА ПЕЛЕВИНА 90-Х ГОДОВ XX ВЕКА	79
Сайёра ИБРАГИМОВА. ЖЕНЩИНЫ-ПИСАТЕЛЬНИЦЫ ЭПОХИ ДЖАДИДИЗМА И ВЗГЛЯДЫ МАХМУДХУЖА БЕХБУДИ НА ИХ ТВОРЧЕСТВО	83
Э.Н.ЕШНИЯЗОВА. СВОЕОБРАЗИЕ ТВОРЧЕСТВА В.С.МАКАНИНА	86

Surayyo MUQUMOVA. 6-SINFDA "KO'Z NURINI ASRAYLIK" MAVZUSINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV	90
Saodat AGZAMKHODJAEVA. AELLCA OLIY TA'LIM HAMKORLIKLARIGA KIRITILISH MASALALARI TADQIQI	93
Shaxnoza ZARIPOVA. APPLICATION OF GAMIFICATION TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS	95
Musharraf ABDULXAYEVA. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHGA OID KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	98
Elyorjon VALIYEV. VIRTUAL MULOQOT JANRLARI VA LINGVISTIKA	100

TADQIQOTLAR

Omina YUSUPOVA. INGLIZ FOLKLORIDA "DONOLIK/NODONLIK" HAMDA "YAXSHILIK/YOMONLIK" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK TAHLILI XUSUSIDA	104
Nargiza MAMADJANOVA. KINODISKURSDA TARJIMA MASALALARI VA ULARNING MADANIYATDAGI O'RNI	107
Feruza ATAMURODOVA. ADABIYOT VA DAVR: INGLIZ ADABIYOTI TARAQQIYOT BOSQICHLARI	109
Elyorjon XASANOV. INGLIZ TILIDA MINTAQAVIY TALAFFUZ FARQLARI	111
Shaxnoza HASANOVA. FRANSUZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA LOTIN TILIDAN O'ZLASHGAN DIPLOMATIK ATAMALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shoxista NIZOMOVA. OBRAZLAR XARAKTERI VA RUHIYAT TASVIRINING IFODALANISHIDA SUV VA OLOV TIMSOLLARI IFODASI	116
Sh.R. AMONTURDIYEVA. AYRIM DINIY SO'ZLAR IMLOSI HAQIDA	119
Tog'oymurod BEKMURODOV. MATBUOT TERMILARINING MODERNIZATSIYASI	122
Guli SHUKUROVA. IJODKOR SHAXSIYATI VA	125
ILMIY-USLUBIY O'ZIGA XOSLIK	125
Farida TURSUNOVA. "TILAK" HANGOMASIDA MUROJAAT MONOLOGINING KO'RINISHLARI	128

Dilfuza KADIROVA. THE EFFECTIVENESS OF USING KWL METHOD ON DEVELOPING READING COMPREHENSION SKILLS.....	306
--	------------

PSIXOLOGIYA

Rayxona NORQOBILOVA. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IQTIDORNI ANIQLASHNING PSIXODIAGNOSTIK ASOSLARI.....	309
Mohinur TOSHEVA. O'SMIRLAR STRESSI VA UNI YENGISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	312
Aynur ULIKPANOVA. OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH	314

KICHIK TADQIQOT

Fotima MAMADOVA. BADIIY ASAR KOMPOZITSIYASI	317
Nasiba XOLIQOVA. O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA BOSH BO'LAKLAR TAHLILI.....	320
Moxina RASULOVA. ALISHER NAVOIYNING "DEVONI FONIY" ASARIDAGI TAVR G'AZALLARNING NASHRLARARO NOMLANISHIDAGI TAFOVUTLAR.....	323
Nafisa RAHMONQULOVA. BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....	325
Zarnigor DAVRONOVA. TO'LQIN HAYITNING "BAHOUDIN NAQSHBAND YOXUD BUROQ VODIYSI QISSASI " ROMANIDA NAQSHBAND OBRAZI TALQINI	327
Sevinch YUSUPOVA. O'TKIR HOSHIMOV IJOD LABORATORIYASIGA NIGOH.....	330

Asila VAHOBOVA. ISAJON SULTON HIKOYALARIDA TAQDIR MOTIVI	332
---	------------

Sevara XUSANOVA. O'ZBEK MODERN ADABIYOTIDA EKZISTENSIALLIK: NAZAR ESHONQUL IJODI MISOLIDA.....	334
---	------------

Yulduz RO'ZIYEVA.. QAHRAMONLAR RUHIY DUNYOSINI TASVIRLASHDA DIALOGNING O'RNI (LUQMON BO'RIXONNING "SINOV MUDDATI" HIKOYASI MISOLIDA)	336
---	------------

Dildoraxon IBROXIMOVA. LIRIK ASARLARNI TADQIQOT METODI ASOSIDA O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARDA OBRAZLI TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH. HAMZA IMOMBERDIYEV ASARLARI MISOLIDA	338
--	------------

Feruza ERGASHEVA. O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIJINI SHAKLLANISHIDA TREVEL JURNALISTIKANING ROLI.....	340
---	------------

Shahodatxon ABDUMUTALIPOVA. "MA'RIFAT" GAZETASI MAQOLALARIDA PUBLITSISTIK USLUB TAHLILI.....	343
---	------------

Mohizar ABDUQAHHOROVA. Gulnoza ORIPOVA. IQBOL MIRZO IJODIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI	345
---	------------

Севара СУЯРОВА. И.А. КРЫЛОВ-КОМЕДИОГРАФ И ТРАДИЦИИ РУССКОЙ КОМЕДИИ XVIII-XIX ВВ.	347
--	------------

Nodira SAFAROVA. THE EFFICIENCY OF DEVELOPING ENGLISH VOCABULARY AT THE B1 STAGE THROUGH READING ACTIVITIES.....	349
---	------------

Mokhiniso GULOMOVA. COGNITIVE FEATURES OF LITERARY WORK TRANSLATION FROM ENGLISH INTO UZBEK.....	351
---	------------

IJOD SOATI

Dilfuza ABLAKULOVA. SHE'RLAR: KECHISH	351
--	------------

